SUN‘IY INTELLEKTNING (SI) INSON HAYOTIGA TA‘SIRI
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА (ИИ) НА ЖИЗНЬ ЧЕЛОВЕКА
THE INFLUENCE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON HUMAN LIFE

ILMIY RAHBAR: O‘zbekiston Respublikasi Farg‘ona viloyati
O‘zbekiston tumani 11-maktab rus tili fani o‘qituvchisi
Voxobov To‘rabek Toshmurod o‘g‘li
voxobovturabek1@gmail.com
IZLANUVCHI: Surxondaryo viloyati
Bandixon tumani 26-maktab 7-D sinf o‘quvchisi
Jo‘raboyeva Parizoda G‘iyos qizi

***ANNOTATSIYA**: Ushbu maqolada hozirda jahon miqyosida tez suratlarda rivojlanib borayotgan sun‘iy intellektning inson hayotiga ta‘siri haqida so‘z boradi, shuningdek uning ijobiy va salbiy jihatlariga ham to‘xtalib o‘tilgan. Maqola keng kitobxonlar ommasiga bag‘ishlanadi.*

***KALIT SO‘ZLAR:** Sun‘iy intellekt (SI), texnologiya, robotlar, murakkab operatsiyalar, robototexnika, elektron mashinalar.*

***АННОТАЦИЯ:**В этой статье рассматривается влияние искусственного интеллекта, который сейчас стремительно развивается во всем мире, на жизнь человека, а также обсуждаются его положительные и отрицательные аспекты. Статья посвящена широкому кругу читателей.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Искусственный интеллект (ИИ), технология, роботы, сложные операции, робототехника, электронные машины.*

ANNOTATION: *This article discusses the impact of artificial intelligence, which is rapidly developing worldwide, on human life, and also touches upon its positive and negative aspects. The article is dedicated to a wide readership.*

KEYWORDS: *Artificial intelligence (AI), technology, robots, complex operations, robotics, electronic machines.*

Hozirgi kunda sun'iy intellekt rivojlanib foydalanuvchilari ham kundan-kunga ortib bormoqda. Sun'iy intellekt shunday texnalogiya-ki, u inson fikrlashini, õrganishini va qaror qabul qilishini taqlid qiladi.(Najot Ta'lim https|| najottalim uz.) Sun'iy intellekt tushunchasi ilk bor 1956-yilda Dartmut konfersiyasida John McCarthy tomonidan ilmiy atama sifatida kiritilgan. (najottalim) Sun'iy intellektning rivojlanishining inson hayotiga salbiy hamda ijobiy tomonlari bor, xuddiki, tanganing ham 2 tomoni bo‘lgani singari. Salbiy tomonlariga "kelajakda kõplab kasblar va ish õrinlar yõqolib ketishi misol bo‘ladi. Masalan hozirgi kunda shifokorlarga ish qolmayapti. Robotlar ishlarini aniq va tõg'ri qilsada, aholi ularga õzini topshirib qõyolmaydi, insonlarga ishongandek ishonolmaydi. Murakkab operatsiyalarni sun'iy intellekt ya'ni robotlar amalga oshirmoqda. Bu esa ularning mavqeyini oshiradi.

"Kelajakda ishsiz qolmang! kasblarni tõg'ri tanlang" degan mavzular kõpaymoqda. Kõp odamlarning balki õsmirlar kasb etagidan ushlamoqchi bõlganlarning katta talqiniga aylandi. Agar yoshligingizdan bir kasbni egallayman deb harakat qilib, natijasini kõrmasangizchi? Ya'ni bu kasbni sun'iy intellekt egallab, ishsiz qolsangizchi? bu esa hozirgi kunda

dolbzard muommalarning biri bōlib ulgurdi. Bunday muommalarning oldini olish uchun kasbni hurmat qilib, ōz kasbini sidqidildan bajarib, insoniyatning sun'iy intellektdan afzal tomonlari borligini isbotlash kerak.

Tarjimonlar yōqoladi, afsus. Turli shaklda tarjima qilib, bizga tayyor holatda uzatadigan ilovalar ham mavjud. Ulardan foydalanish oson, tarjima qilaveradi, natijada tarjimonlarga ehtiyoj qolmaydi. Yozuvchilarga tōxtalsak: ular buyuk qadimgi shohlarga ham xizmat qilgan. Ular bayonlar, uzundan-uzun hikoya-yu–she'rlarni yozganlar. Bularni sun'iy intellektga berib, dasturlasangiz shu zahoti chiqarib beradi. Ular ham yōqolish arafasida ekan. Ijobiy tomonlari esa tushinmagan, bilmagan narsalaringizni oydinlashtirib olishingiz mumkin. Sun'iy intellekt bu ijtimoiy tarmoqlar demakdir. Ijtimoiy tarmoqlarda ham qidirsangiz yaxshi ma'lumotlar, bobolarimiz haqida ilmiy faktlar yashiringan. Ular tufayli bilimlaringizni boyitishingiz mumkin. Ijtimoiy tarmoqlardan biri bu—Kundalik.com. U tufayli baholarimizni elektron aniqlashimiz mumkin. Sun'iy intellekt aql-zakovatga ega, har qanday savolga tōg'ri, aniq va tez javob beradigan robototexnika. Darhaqiqat, u shunday dasturlangan-ki, insondan bir necha barobar tez javob beradi. U ōylab ham ōtirmaydi, savol berilsa, javob ham bir zumda tayyor turadi.

Sun'iy intellekt nafaqat ilmiy muhitda, balki hayotimizda ham keng qōllanmoqda.(najottalim). Sun'iy intellekt tufayli robotlar, maishiy texnikalar va ijtimoiy tarmoqlar tobora rivojlanib bormoqda. Bu esa barcha qiyin ishlarimiz robotlarning qōliga ōtishini ta'minlaydi. Yōq biz bunga yōl qōymaymiz. Men ōzimdan bir satrlarni qōshsam: "Hayot yutqazgan joyingdan boshlanar". Ular bizdan ham yuqori natijalarga erishsa ham, insoniyat tōxtamasligi kerak. Hali shunday kunlar keladi, insonlar baribir aqldan sun'iy intellektdan ustunligini isbotlaydi. Sun'iy intellektni ham insonlar yaratgan-ku.

Texnologiyalar rivojlanishi sari, so'ngi 20 yilda eng yirik ishdan bo'shatishlar kuzatildi.2025 yilning o'zida 100 mingdan ortiq odam ishsiz qolyapti.(2.https\\vaqt.uz\uz\mobili).Bu esa xalqning katta talqiniga sabab bo'ladi. Ishsiz odamlarga qiyin, oilasini boqish undan ham qiyin muommaga aylanadi. Epchil, aqlli robotlarga ega rahbarlar albatta odamlarni ishdan ishdan bõshatadi. Robotlarni afzal deb õylaydi. Tõg'ri-da, ular uchun robotlar qulay. Ular ovqatlanmaydi, charchamaydi, xato qilmaydi. Yana oyma-oy maosh tõlash shartmas.

Kõplab kompaniya rahbarlari Si tufayli kasblar yõqolishini, ularning õrnini sun'iy intellekt egallashini ta'kidlamoqda. Masalan, Anthropic kompaniyasining rahbari Dario Amodey yaqin yillarda ofisdagi ishchilarning yarmini sun'iy intellekt bilan almashtirish qarorida. Bu esa ishsizlik darajasini 20 foizgacha oshirishi mumkin. (vaqt.uz).

Boston Consulting Group va Chexiya Mehnat vazirligi hamkorlikda õtkazilgan tadqiqotiga kõra, mamlakat mehnat bozorlari katta õzgarishlarga duch keladi. Taxminan 1,2 million ishchi ishini tark etadi, ularning õrnini esa 1,9 million yangi ishchi ya'ni robotlar egallaydi. Bu ishchilarning barchasu Si keng miqyosda joriy qilingani bõlib, Õzbekistondagi kompaniya rahbarlari ham amal qilishga tõg'ri keladi. (vaqt.uz). Õzbekistonga tõxtalsak: ularning soha mutaxassislari Sining qarorini qanday izohlaydi. "Keyingi 10 yillikda sun'iy intellekt gullab-yashnaydi. Sun'iy intellekt bugun ham turli yõnalishlarda inson õg'irini yengil qilmoqda. Ilg'or mamlakatlar undan million milliardlab foyda kõryapti.

Soha mutaxassisi Anvar Narzullayevning fikricha: Õzbekistonga ham sun'iy intellekt kerak. Deyarli barcha shifoxonalarni raqamlashtirsak yaxshi bõladi. Maqsad: Bizning yurtimiz ham rivojlanishi, ilg'or mamlakatga aylanishi, daromad yuqori bõlishi ekan.(vaqt .uz).

Jahon banki taqdim etgan statistikaga kõra, Si sabab 85 millionta ish õrni yõqolib, õrniga 97 millionta ish õrni paydo bõladi. Xulosa qilib aytganda Si sababli kõplab kasblar yõqolib, qisqarsa ham õrniga yanada kõp kasblar paydo bõlishiga sabab bõladi. (vaqt.uz).

Jahon bõyicha ya'ni turli mamlakatlarda ba'zi kasblar "qadrsizlana" boshlagan, ya'ni talab va ish õrni sezilarli darajada kamaymoqda. Masalan, kassirlar, chipta va bilet sotuvchilar, ular ham tez orada yõqolib ketadi ya'ni hamma chipta va biletlar onlayn tarzda sotiladi va kassirlarga ehtiyoj qolmaydi. Haydovchilar kamaymoqda, mashinalar tõliq avtomatlashtirilgan holatda mijiz yoniga keladi. Masalan Afrikaning ba'zi davlatlari, Kenyani olsak 8-10 yil davomida elektron mashinalar import qilmoqda. Kanadada 15 yil davomida elektron mashina import qilinmoqda. Buyuk Brianiyada 25 yildan oshgan avtomobillar "antik\ classic" sifatida import qilinadi.

Elektron mashinalar ular uchun foydali. Chunki kattalarning zarur ishlari bõlsa,

elektron mashinalarga buyruq beradi. Õzi bolalarini bog'chaga yoki maktabga olib borib, olib kelaveradi. Taksiga bolalarini bermaydi. Xotirjam bõladi. Bu esa elektron mashinaga talablarni oshiradi va yaqin orada uning daromadi ortadi.

Quyida ayrim dolzarb savollarga javob ko‘rsatilgan:

— Sun’iy intellekt odamlardan ishini tortib olmaydimi?

— Rostdan ham bu savol hozir juda dolzarb. Sun’iy intellektning o‘zi odamlarning ishini olib qo‘ymaydi. Lekin sun’iy intellektdan unumli foydalana oladigan boshqa odamlar tortib olishi mumkin. Sun’iy intellektning aynan o‘zidan qo‘rqish kerak emas, balki uni yaxshilab o‘rganish kerak.

— Ayni qaysi sohalarda sun’iy intellekt ta’siri sezilmoqda?

— Sun’iy intellekt media soxasiga shiddat bilan kirib keldi ayniqsa. Tasvir ustida ishlash, montaj qilish kabilarda qo‘l kelyapti. Chet elda shu darajaga chiqdiki, televideniyeda boshlovchilarning sun’iy intellekt shakli yaratilib (avatar), dasturlar olib borilmoqda.

— Salbiy tomonlari qanday?

— Salbiy tomonlar hamma narsada bor. Deylik, oddiy pichoqdan oshxona anjomi sifatida foydalanish mumkin, qurol sifatida ham foydalanish mumkin. Sun’iy intellekt ham nima maqsadda, kimning qo‘lida ishlatilishiga qarab foydali yoki zararli bo‘lishi mumkin. Masalan, 2022 yil oxirlari, 2023 yil boshlarida ko‘pgina feyk suratlar tarqaldi, bu orqali feyk xabarlar ham chiqdi. Bir tomondan yaxshi keys bo‘ldi bular, chunki faktcheking qilish kerakligi, tekshirish lozimligi o‘rtaga chiqdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://vaqt.uz/uz/mobile/news/suniy-intellekt-tufayli-qaysi-kasblar-yoqolib-ketishi-mumkin-6411
2. Najottalim.uz
3. https://kun.uz/news/2024/01/09/suniy-intellekt-qanchalik-xavfli-yoki-foydali